



Namangan viloyat statistika boshqarmasi


(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-aprel oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2146,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,9 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida savdo xizmatlari (34,1 %), transport xizmatlari (19,0 %), moliyaviy xizmatlar (13,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (6,2 %) ustunlikka ega.

2019 yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %





Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	2146,2	112,9
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	134,1	104,2
Moliyaviy xizmatlar	296,0	180,9
Transport xizmatlari	407,4	103,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	357,5	101,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	40,2	101,7
Savdo xizmatlari	732,3	106,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	67,7	101,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	97,1	119,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	40,6	108,6
Ijara xizmatlari	42,9	96,3
Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	61,5	100,8
Shaxsiy xizmatlar	142,9	106,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	31,7	176,3
Boshqa xizmatlar	51,8	99,5




Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Xizmatlar sohasida eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (180,9 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (176,3 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (119,1 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (108,6 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %






Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari Ijara xizmatlari (96,3 %), boshqa xizmatlar (99,5 %), kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (100,8 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (101,2 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismi savdo xizmatlari tashkil etdi. 2019 yil yanvar-aprel oylarida uning ulushi 34,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (19,0 %), moliyaviy xizmatlar (13,8 %), shaxsiy xizmatlar xizmatlar (6,7 %) egallaydi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi





Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi.


Transport xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (87,7 %) egallaydi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 9,9 % ni tashkil qiladi.

Quvurlar orqali tashish xizmatlari umumiy transport xizmatlarining 1,9 % ni tashkil etadi.

Pochta va kuryerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,4 % ni tashkil etadi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %






Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Yo'lovchi tashish avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmida salmoqli qismini egallaydi. 2019 yil yanvar-aprel oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 74,3 % ga yetdi.

Avtotransportda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 25,7 % ni tashkil etdi.

Tashish turlari bo'yicha ko'rsatilgan avtomobil bozor xizmatlarining tarkibi, %



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.


Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2019 yil yanvar-aprel oylarida uning ulushi 75,5 % ni tashkil etadi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar- aprel oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 19,9 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,6 % ni egallaydi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-aprel oylarida aloqa va ahborotlashtirish turlari bo'yicha aloqa va ahborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %

Aloqa va ahborotlashtirish xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni telekommunikasiya xizmati (96,2 %) egallaydi.

Nashriyotchilik xizmati umumiy hajmining 2,6 % ni tashkil qiladi.

Ahborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va ahborotlashtirish xizmatlarining 0,6 % ni tashkil etadi.

Komputer programmalarini ishlab chiqarish xizmati aloqa va ahborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Radioeshittirish va teleko'rsatuv xizmati 0,2 % ni tashkil etadi.

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati umumiy aloqa va ahborotlashtirish xizmatlarining 0,1 % ni tashkil etadi.

Aloqa va ahborotlashtirish turlari bo'yicha aloqa va ahborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %






Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish butun dunyoda raqamli o'zgarishni boshqaradi va ko'plab odamlar AKT xizmatlari, xususan, mobil aloqa va Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda, mobil aloqa xizmatlaridan ko'proq aholi (jismoniy shaxslar) foydalanishadi. Ularning ulushi - 93,6 % ni tashkil qiladi. Mobil aloqa xizmatlaridan foydalanishda yuridik shaxslarning ulushi 6,4 % ni tashkil etadi.

Mobil aloqa abonentlari tarkibi, %






Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 296,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 180,9 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %






Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 40,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'atlari 101,7 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 1,9 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibining taqqoslanishi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 81,2 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 18,8 % ga to'g'ri keladi.




Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning o'sishi

2019 yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 778,2 ming.so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-aprel oyiga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 132,8 ming.so'mga oshdi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

(69) 227-85-28